

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro davlat universiteti
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası**

**"O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI"**

**Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2025 yil, 14-15 aprel

2

Buxoro – 2025

“O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.
2025-yil 14-15-aprel: - Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona Nashriyoti, 2025.- 442-b.

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo'mita

- | | | | |
|-----|---------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh.Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, DSc., prof. a'zo; |
| 4. | A.T.Jo'rayev | | Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor, i.f.n, a'zo; |
| 5. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., i.f.d., prof. a'zo; |
| 6. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrasida professori, i.f.d., a'zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida dotsenti, i.f.n., a'zo; |
| 9. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 10. | S.S.Davlatov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo'mita

- | | | | |
|-----|----------------|---|--|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., DSc., i.f.d. prof, rais muovini; |
| 3. | O'U.Rashidov | – | Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor, a'zo; |
| 4. | O.S.Qahhorov | – | Ilmiy tadqiqot va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo; |
| 5. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida mudiri, a'zo; |
| 6. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida dotsenti, i.f.n., a'zo; |
| 7. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | S.S.Ro'ziyev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida katta o'qituvchisi, i.f.n, a'zo; |
| 9. | F.K.Saidova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 10. | A.D.Qudratov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 11. | N.D. Salixov | - | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo; |

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

Turobova Hulkar Rustamovna
Buxoro davlat universiteti dotseni, PhD
Eshbekov Murodjon Uktamovich
Buxoro Davlat Universiteti talabasi

E-mail : uktamovichmurodjon2004@gmail.com

QISHLOQ XO‘JALIGI CHIQINDILARINI MONETIZATSIYA QILISH VA SIRKULAR IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING STRATEGIYALARI

ANNOTATSIYA

Qishloq xo‘jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish va sirkulyar iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari

Sirkulyar iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan samarali foydalanish ekologik barqarorlikni ta‘minlash bilan birga, iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini ham yaratadi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari, qayta ishlash jarayonlari hamda bozorda muvaffaqiyatli marketing strategiyalarini ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilmiy manbalar, amaliy tajribalar va jahon tajribalariga asoslangan qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash natijasida organik o‘g‘it, biogaz va sanoat xom ashyosi ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun samarali marketing strategiyalari, jumladan, maqsadli auditoriyani aniqlash, raqamli marketing vositalaridan foydalanish va ekologik bozorlarni rivojlantirish zarur. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan iqtisodiy daromad olish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha muhim amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: sirkulyar iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi chiqindilari, monetizatsiya, marketing strategiyalari, qayta ishlash, ekologik bozorlar.

Kirish :

Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda resurslardan samarali foydalanish bugungi kunda global iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash va ulardan iqtisodiy foyda olish masalasi jahon iqtisodiyotida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ilgari qishloq xo‘jaligi chiqindilari keraksiz material sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi zamonaviy iqtisodiy modelda ularni monetizatsiya qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan organik o‘g‘it, bioyoqilg‘i, hayvon yemi va sanoat xom ashyosi sifatida foydalanish ularning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Biroq, chiqindilarning to‘g‘ri boshqarilmasligi ekologik muammolar, tuproq degradatsiyasi va resurslarning samarasiz sarflanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligi chiqindilarining bozordagi o‘rni ilmiy adabiyotlar, amaliy tajribalar va statistik tahlillar asosida baholanadi. Ushbu maqolaning maqsadi – qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash va ularning iqtisodiy qiymatini oshirish bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi :

Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish va ularning marketing strategiyalarini baholash uchun qiyosiy tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlandi. Bu usul turli mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash va ularni bozorda realizatsiya qilish bo‘yicha qo‘llanilayotgan strategiyalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot uchun mahalliy va xalqaro ilmiy maqolalar, hukumat va xalqaro tashkilotlarning statistik hisobotlari, sanoat tahlillari, qishloq xo‘jaligi chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalar va amaliyotlar, shuningdek, bozorda chiqindi asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxlari va talab darajasi bo‘yicha ma‘lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash va bozorda sotishning turli usullari solishtirildi. Chiqindilardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozordagi o'rini aniqlash uchun talab va taklif dinamikasi, narx shakllanishi va iste'molchilar segmentatsiyasi bo'yicha tahlillar o'tkazildi.

Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash usullari, huquqiy tartibga solish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari o'rganildi. Turli strategiyalar asosida olingan natijalar iqtisodiy samaradorlik, investitsion jozibadorlik va ekologik ta'sir mezonlari bo'yicha baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish rivojlangan mamlakatlarda samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu jarayonda ilg'or texnologiyalar, davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari va bozor mexanizmlarining muhim o'rni bor. Ushbu bo'limda Germaniya, AQSh va Niderlandiyada qishloq xo'jaligi chiqindilaridan iqtisodiy foydalanish bo'yicha yondashuvlar tahlil qilinadi.

Germaniya tajribasi


Germaniya chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. *Statista* ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Germaniyada hosil bo'lgan organik chiqindilarning 70 foizdan ortig'i qayta ishlangan. Xususan, biogaz ishlab chiqarish sohasi keng rivojlangan bo'lib, 2022-yilda mamlakatda 9 mingdan ortiq biogaz stansiyalari faoliyat yuritgan. Ushbu stansiyalar yiliga 33 teravatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, Germaniya umumiy energiya ehtiyojining 6 foizini ta'minlagan (*European Biogas Association, 2023*).

Biogaz ishlab chiqarish fermerlar uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lib, bir o'rtacha xo'jalik yiliga 50-100 ming yevro foyda ko'radi. Germaniya hukumati biogaz ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida subsidiya va soliq imtiyozlari taqdim etib kelmoqda.

AQSh tajribasi

AQShda qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish bo'yicha davlat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan turli dasturlar mavjud. Xususan, AQSh Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) tomonidan amalga oshirilayotgan "Biopreferred" dasturi qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirishga qaratilgan. Ushbu dastur orqali qishloq xo'jaligi chiqindilaridan organik o'g'it, bioplastik va hayvon yemlari ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarga subsidiya ajratiladi.

2022-yilda AQShda 10 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari chiqindilardan iqtisodiy foyda olish maqsadida organik o'g'it va bioplastik mahsulotlar ishlab chiqargan. Bioplastik bozori jadal rivojlanib, 2023-yilda uning umumiy hajmi 11 milliard dollarga yetdi (*USDA Report, 2023*). Shuningdek, chiqindilardan olinadigan biogaz yiliga 2,4 milliard kub metr tabiiy gaz ekvivalentida energiya ishlab chiqarish imkonini beradi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilishning rivojlangan davlatlar ko'rsatkichi

Niderlandiya tajribasi

Niderlandiya qishloq xo'jaligi chiqindilaridan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan mamlakatlardan biridir. Mamlakatdagi chiqindilarni qayta ishlash darajasi 80 foizga yetgan bo'lib, bu Yevropadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi (*Eurostat, 2023*).

Niderlandiyada chiqindilardan ishlab chiqarilgan organik o'g'itlarning yillik eksport hajmi 500 million yevrodan oshadi. Shu bilan birga, chiqindilardan olinadigan hayvon yemlari bozorining yillik hajmi 1 milliard yevroga teng. Bu sohaga investitsiyalar jalb etilishi natijasida qishloq xo'jaligi chiqindilaridan olinadigan mahsulotlarning eksport hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Niderlandiya hukumati ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida chiqindilarni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlab, fermerlar va ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar va subsidiyalar taqdim etmoqda.

Xitoy tajribasi

Xitoy qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash va monetizatsiya qilish bo'yicha jadal rivojlanayotgan davlatlardan biridir. 2022-yilda mamlakatda qishloq xo'jaligi chiqindilarining qayta ishlash darajasi 60 foizga yetdi. Hukumat 2025-yilgacha bu ko'rsatkichni 80 foizga yetkazishni maqsad qilgan.

Mamlakatda chiqindilardan biogaz ishlab chiqarish bo'yicha 10 mingdan ortiq inshoot faoliyat yuritadi. 2023-yilda ishlab chiqarilgan biogaz hajmi 25 milliard kub metrni tashkil etib, 50 million xonadon energiya bilan ta'minlangan. Shuningdek, Xitoyda organik o'g'it ishlab chiqarish yillik 30 million tonnadan oshib, bu sohada sezilarli o'sish kuzatilmoqda.


Xitoy hukumati qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlashga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar va soliq imtiyozlari taqdim etmoqda. Organik o'g'it va bioyoqilg'i ishlab chiqaruvchilariga kredit va davlat investitsiyalari ajratilgan.

Hindiston tajribasi

Hindiston yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib, har yili 500 million tonnadan ortiq chiqindi hosil qiladi. 2023-yilga kelib bu chiqindilarning 40 foizi qayta ishlangan. Hukumat tomonidan chiqindilarni monetizatsiya qilish bo'yicha turli dasturlar yo'lga qo'yilgan, ammo infratuzilma va texnologik imkoniyatlar hali rivojlanish bosqichida.

Gobardhan dasturi doirasida 2025-yilgacha 500 ta yirik biogaz zavodini ishga tushirish rejalashtirilgan. 2023-yilda Hindistonda chiqindilardan ishlab chiqarilgan biogaz hajmi 4 milliard kub metrga yetgan bo'lsa, 2030-yilgacha bu ko'rsatkich 10 milliard kub metrdan oshishi kutilmoqda.

Shuningdek, chiqindilardan qog'oz, bioplastik va hayvon yemi ishlab chiqarish rivojlanmoqda. 2023-yilda Hindistonda chiqindilardan tayyorlangan bioplastik mahsulotlar bozorining hajmi 2 milliard dollarni tashkil qilgan.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash va biogaz olishda rivojlanayotgan davlatlar tajribasi

Braziliya tajribasi

Braziliya yillik 700 million tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi chiqindisi hosil qiladi. 2022-yilda mamlakatda chiqindilarni qayta ishlash darajasi 50 foizni tashkil etgan.

Braziliyada chiqindilardan bioyoqilg'i ishlab chiqarish keng rivojlangan. 2023-yilda mamlakatda 35 milliard litr etanol ishlab chiqarilgan bo'lib, bu mamlakatning transport yoqilg'isiga bo'lgan ehtiyojining 45 foizini qoplagan.

Shuningdek, organik o'g'it ishlab chiqarish ham rivojlanib, 2022-yilda yillik ishlab chiqarish hajmi 20 million tonnaga yetgan. Bu fermerlarning mineral o'g'itlarga bo'lgan bog'liqligini kamaytirishga yordam bergan. Braziliya hukumati chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida investitsiya dasturlarini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston tajribasi

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish so'nggi yillarda muhim dolzarb masalaga aylanib, bu borada bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda yiliga o'rtacha 30 million tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi chiqindilari hosil bo'ladi, lekin hozirda ularning atigi 20-25 foizi qayta ishlanmoqda. Asosan, paxta qoldiqlari, bug'doy somoni, mevasabzavot qoldiqlari va chorvachilik chiqindilari qayta ishlash uchun asosiy xomashyo hisoblanadi.

Biogaz ishlab chiqarish

O'zbekiston biogaz ishlab chiqarish bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lsa-da, bu soha hali to'liq rivojlanmagan. Hozirda mamlakatda 300 ga yaqin biogaz qurilmalari faoliyat yuritmoqda, biroq bu raqam mavjud imkoniyatlar bilan solishtirganda past. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar chiqindilar to'liq qayta ishlansa, yiliga 8-10 milliard kub metr biogaz ishlab chiqarish mumkin. Bu esa tabiiy gaz iste'molini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.


2022-yilda O'zbekistonda 20 dan ortiq yirik fermer xo'jaliklarida biogaz qurilmalari ishga tushirilgan. Xususan, Jizzax va Samarqand viloyatlarida chorvachilik chiqindilaridan biogaz ishlab chiqarish loyihalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu loyihalar yiliga 2 million kub metrdan ortiq biogaz ishlab chiqarish imkonini beradi.

Organik o'g'it ishlab chiqarish

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida organik o'g'itlarga talab ortib bormoqda. 2023-yilda mamlakatda 200 ming tonnadan ortiq organik o'g'it ishlab chiqarilgan, ammo bu ichki talabni to'liq qondirish uchun yetarli emas. O'g'it ishlab chiqarishda paxta, g'alla va sabzavot chiqindilaridan keng foydalaniladi. Masalan, Farg'ona vodiysida paxta chiqindilaridan biohumus ishlab chiqarish loyihasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu o'g'it hosildorlikni 15-20 foizga oshirish imkonini beradi.

Bioplastik va yem ishlab chiqarish

Qishloq xo'jaligi chiqindilaridan bioplastik va hayvon yemlari ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki loyihalar amalga oshirilmoqda. 2022-yilda Toshkent va Andijonda qishloq xo'jaligi chiqindilaridan bioplastik mahsulotlar ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilgan. Ushbu loyiha natijasida yiliga 5 ming tonna bioplastik mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.



3-rasm. O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilishdagi muammolar

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida g'alla somonidan hayvon yemlari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirilib, bu loyiha yiliga 10 ming tonnadan ortiq yem ishlab chiqarish imkonini yaratgan.

Chiqindilarni monetizatsiya qilishdagi muammolar

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish jarayonida quyidagi muammolar mavjud:

- Qayta ishlash infratuzilmasining yetishmovchiligi – mavjud zavod va korxonalar chiqindilarni to'liq qayta ishlash quvvatiga ega emas. Bu esa qayta ishlash jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

- Moliyaviy resurslarning cheklanganligi – fermer va tadbirkorlar uchun chiqindilarni qayta ishlashga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar va grantlar yetarli darajada mavjud emas. Bu resurslar yetishmasligi, yangi investitsiyalarni jalb qilishda to'siqlar yaratadi.

- Bozor talabining nisbatan sustligi – organik o'g'itlar va bioplastik mahsulotlar bozori rivojlanayotgan bo'lsa-da, an'anaviy mahsulotlar bilan raqobat qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Organik mahsulotlarga bo'lgan talabning o'sishi uchun yetarlicha marketing va targ'ibot ishlari olib borilmayapti.

XULOSA

Qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish va sirkulyar iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari qishloq xo'jaligi sektori va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday chiqindilarni samarali ishlatish, ulardan foyda olish va ularni qayta ishlash, resurslarni tejashga, chiqindilarni kamaytirishga, va atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi. Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlash va sotish jarayonlarida zamonaviy marketing strategiyalarini qo'llash, bozorda raqobatni oshiradi, yangi biznes imkoniyatlarini yaratadi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Marketing strategiyalari qishloq xo'jaligi chiqindilarining qiymatini oshirish, ularni to'g'ri auditoriyaga yetkazish va boshqarish orqali resurslarni yanada samarali ishlatishga yordam beradi. Ushbu strategiyalarni amalga oshirishda yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish, ekologik mahsulotlarni targ'ib qilish, hamda qayta ishlash va tiklash jarayonlarini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy maqsadi - resurslarni uzoq muddat davomida samarali ishlatish va atrof-muhitga kam zarar yetkazishdir, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Demak, qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish va marketing strategiyalarini sirkulyar iqtisodiyot asosida rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham katta hissa qo'shadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali hamkorlik va yangi yondashuvlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

43. Turobova, Hulkar. "БИОЭКОНОМИКА: ВОЗМОЖНОСТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПЛОЩАДЕЙ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).

44. Turobova, Hulkar, and Murodjon Eshbekov. "Development of Entrepreneurial Skills of Farmers." Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress 2.4 (2023): 13-17. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12837_1_7CDF1DC25A68BCDE242301C4BF6FDDC8DC7E54D4.pdf

45. Turobova, H. R., and M. U. Eshbekov. "Improve children online safety." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 3.3 (2023): 130-134. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/190>

46. Rustamovna, Turobova Hulkar, and Narzullayeva Gulchehra Salimovna. "Possibilities Of Bio Economic Development In Uzbekistan." European Multidisciplinary Journal Of Modern Science 4 (2022): 860-866.

47. Turobova, Kh R., and N. B. Giyasova. "Improving the training and financing of highly qualified personnel in the knowledge economy." Economics and Innovative Technologies 2018.4 (2018): 13.

48. Turobova, N. (2022). БИОЭКОНОМИКА: ВОЗМОЖНОСТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПЛОЩАДЕЙ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4689
49. Кайимова З. Тurobova X (2022). Ўзбекистонда биоиктисодиётни ривожлантириш омиллари. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. 1(17). <https://ifmr.uz/journals/14>
50. Тurobova, Хулкар. "Особенности развития агробизнеса." Экономика и инновационные технологии 3 (2021): 126-134.
51. Рустамовна, Тurobova Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
52. Рустамовна, Тurobova Хулкар. "АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ."
53. Тurobova, Хулкар. "Агротуризмни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари." Экономика и инновационные технологии 6 (2019): 166-172.
54. Turobova, Hulkan, Feruza Ahmedova, and Malika Buranova. "Foreign experiences in organizing cooperation relations in Uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 2397-2400.
55. Turobova, N. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОБИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 4(4). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/210
56. Turobova, Hulkar. "ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КООПЕРАТИВЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ МУАММОЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 36.36 (2023).
57. Murodjon Eshbekov, Iroda Saidmuratova, Turobova H. R. Ways To Ensure The Safety Of Agro-Food In Uzbekistan. https://ilmiyanjumanlar.uz/co_view.php?id=6605
58. Эшбеков М.У. ЦИРКУЛЯРНАЯ ЭКОНОМИКА: КАК ЭФФЕКТИВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ БЕЗОТХОДНОГО ПРОИЗВОДСТВА. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsirkulyarnaya-ekonomika-kak-effektivnoe-napravlenie-bezotходного-proizvodstva>
59. Eshbekov Murodjon Uktamovich, Turobova.H.R Qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlashni rivojlantirishni ahamiyati. AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR Ilmiy-amaliy elektron jurnal 74-78-b https://tdau.uz/static/media/D4PktLJDe_iRKhXOULKfBgelk6ZmG2Xp.pdf
60. <https://stat.uz/uz/>
61. <https://www.ifrs.org/>
62. <https://www.worldbank.org/>
63. Electronic methodological on the subject "economics of the agro-industrial complex: tests" guide (210) application number: DGU 202405847 <https://im.adliya.uz/document/check/2389115b-315d-4230-b601-0dc8624cc6d8>
64. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE PRINCIPLES AND MECHANISMS OF MANAGING THE GREEN DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMY <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-iqtisodiyotning-yashil-rivojlanishini-boshqarish-tamoyillari-va-mexanizmlarini-organishning-nazariy-va-uslubiy-asoslari>
65. ANALYSIS OF MODERN PRACTICES AND TECHNOLOGIES OF THE GREEN ECONOMY IN THE CONTEXT OF TEACHING GREEN ECONOMICS <https://cyberleninka.ru/article/n/yashil-iqtisodiyot-fanini-oqitish-kontekstida-yashil-iqtisodiyotning-zamonaviy-amaliyotlari-va-texnologiyalarini-tahlil-qilish>
66. Akhmedov A.O. DIGITALIZATION OF LOGISTICS: FROM BIG DATA TO THE INTERNET OF THINGS // Universum: Technical Sciences Issue: 4(121) April 2024 Moscow 2024 <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/17341>

ЭФФЕКТИВНОСТИ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ	155
Туранова Дилнур Мухиддин кизи, Каршибоев Шароф Абдураупович, Муртазин Эмиль Рустамович. ГИБРИДНЫЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ: КОМБИНИРОВАНИЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ ДЛЯ СТАБИЛЬНОГО ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	160
Sharobiddinov Mirzoxid Shaxobiddin o'g'li, KUCHLANISHNI ROSTLASH MASALASIDA SUN'IY INTELEKT ELEMENTLARINI QO'LLANISHNING AHAMIYATI (FIS, ANFIS, NNT)	164
Haqiqov Anvarjon Umidjon o'g'li. NOANIQ MANTIQ ASOSIDA QUYOSH ELEKTR STANSIYALARNI HIMOYALASINI ISHLAB CHIQISH VA TARMOQ SXEMALARINI YARATISH	167
Abdujabborov Lazizbek Abdug'affor o'g'li. ҚУЁШ ҚУРИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ	170
Шокиров Хотамбек Анварович. ҚАЙТА ТИКЛАНАДИГАН ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШНИНГ МОЛИЯВИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	174
J. J. Kamolov. PARABOLOID QUYOSH KONTSEKTRATORLARIDAN FOYDALANIB TURAR-JOY BINOLARINING ISSIQLIK SARFINI KAMAYTIRISH.....	178
Ж. Ж. Камолов. РАСЧЕТ СИСТЕМЫ ПАНЕЛЬНО-ЛУЧИСТОГО ОТОПЛЕНИЯ ДЛЯ РАЗЛИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ ИЗОЛЯЦИИ	180
IV sho'ba. O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish ..	184
Lóránt Dénes Dávid ^{1,2,3} – Moaaz Kabil ² – Al Fauzi Rahmat ² – Erkin Farmanov Alimov ^{2,3} , Circular Economy, Tourism and Ecology: A Review Paper.....	184
Шилец А.Н., Дарибекова А.С. Проблемы с управлением отходами в Республике Казахстан	187
Saidqulova Firuza Farmonovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich. Sirkulyar iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi chiqindilarining biznes modeli	189
Turobova Hulkan Rustamovna. Qishloq xo'jaligi chiqindilarini monetizatsiya qilish va sirkulyar iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari	195
Шодмонов Ферузжон Камариддинович, Сарварова Рюзана Биналиевна. ВЫРАЩИВАНИЕ РАСТЕНИЕ АЗОЛЛЫ В РАЗВИТИИ РЫБОЛОВСТВА.....	201
Ahmedov Azimjon Olimjon o'g'li, Eshbekov Murodjon Uktamovich. Qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlashni moliyalashtirishda yashil moliyaning roli	203
Akramov Botirjon Okhunjon ugli, Hakimova Marjona Hayrulla qizi. SEMICONDUCTOR MATERIALS: CURRENT DEVELOPMENTS AND TECHNOLOGICAL ADVANCEMENTS.....	209
Durdiqilichova Ruxshona Maxkamovna. O'zbekistonda bioiqtisodiy va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyat va zaxiralaridan samarali foydalanishning ahamiyati	212
Isroilov Xusanboy Ibrohimjon o'g'li. Sirkulyar iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va mavjud resurslardan samarali foydalanishning ahamiyati	215
Karimjonov Doniyorbek Ibrohimjon o'g'li. O'ZBEKISTONDA BIOIQTISODIYOT VA YOPIQ AYLANUVCHI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING AHAMIYATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	217
Kamoldinov Muhammadsodiq Baxtiyor o'g'li. BIOIQTISODIY JARAYONLARNI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH.....	221
Nilufar Baxronova Sunnat qizi. FINANCIAL AND POLITICAL ASPECTS OF BIOECONOMY AND CIRCULAR ECONOMY IN UZBEKISTAN	221
Nuritdinov Ramziddin. Xizmat ko'rsatish korxonalarida sirkulyar iqtisodiyotni tashkil etish	224
Kurbonova Xurshida Idiyevna, Saxatova Shaxzoda Obidjon qizi. Yong'oq po'stlog'ining chiqindilarni boshqarishdagi roli.....	228
Saidova Feruza Kamolovna, Ilasheva Yayra Alijon qizi. JAHON TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA ZAHIRALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI	233